

IBN SINO VA IBN TUFAYL AXLOQIY QARASHLARINING KOMPARAVISTIK TAHLILI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-184-190>

Rashidova Xushnoza Nuraliyevna

TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Ikramova. I.R.

+99877-033-62-65

Sharq mutafakkirlari orasida buyuk alloma Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy merosi axloq, ruhiyat va ma'naviyatni chuqur tadqiq qilishi bilan alohida ajralib turadi. U nafaqat tabobat, balki falsafa, mantiq, metafizika, siyosat va axloqiy ta'limot sohalarida ham yirik nazariy qarashlar yaratgan. Ibn Sinoning axloqiy-falsafiy konsepsiyasi insonning ruhiy olami, aqlning tabiatdagi o'rni hamda inson hayotidagi falokat va baxtsizliklarning sabablarini izohlashga qaratilgandir.

Demak, insonning axloqiy rivoji – ruhiy tarbiya va o'zini-o'zi nazorat qilish orqali amalga oshadi.

Ibn Sino ta'limotida ruh – insonning eng asosiy mohiyati, hayot va ong manbai sifatida talqin etiladi. U tanadan mustaqil, ammo unga bog'liq, nabotiy, hayvoniy va aqliy darajalarda namoyon bo'luvchi va aql bilan birgalikda insonni ilm, axloq va ma'naviy yuksaklikka olib chiquvchi substansiya sifatida izohlanadi.

Shunday qilib, Ibn Sino ruh haqidagi qarashlari nafaqat Sharq falsafasi, balki G'arb falsafasiga ham katta ta'sir ko'rsatgan va bugungi kunda ham falsafiy, psixologik hamda diniy tadqiqotlarda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ibn Sino axloqiy ta'limotida aql markaziy o'rinni egallaydi. U aqlni nafaqat bilish quvvati, balki axloqiy qarorlarning asosiy mezoni sifatida ham talqin qiladi. Alloma aqlni to'rt bosqichda tahlil qiladi:

Ibn Sino fikricha, inson axloqiy kamolotga aqlning yuqori bosqichlariga erishish orqali yetadi. Aql bilan boshqarilmagan nafs esa insonni halokatga olib boradi.

Ibn Sino sezgilarni bilim olishning boshlang'ich manbai deb biladi, ammo sezgilar yolg'iz haqiqatga olib bora olmaydi. Sezgilar – xom ma'lumotni beradi. Aql – ularni tartibga soladi, umumlashtiradi va mantiqiy xulosaga olib keladi. Demak, aql sezgilarni boshqaruvchi va ularga yo'nalish beruvchi quvvat sifatida insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadi.¹

Ibn Sino axloqiy qarashlarida ham aql markaziy o'rinda turadi. Unga ko'ra aql nafsiy istaklarni boshqaradi. Axloqiy tanlovlarda aql – adolat, donolik, sabr va shijoat kabi fazilatlarini belgilaydi. Aqlsiz nafs hukmronligi insonni halokatga olib boradi.

Shunday qilib, insonning haqiqiy baxti – aql yordamida nafsni jilovlash va ruhni poklash orqali erishiladi.

¹ Davidson, H. A. (1992). *Alfarabi, Avicenna, and Averroes on Intellect*. Oxford.: Oxford University Press. – P. 52.

Ibn Sino o‘z amaliy faoliyatida ham aqlni eng oliy quvvat sifatida qo‘llagan. U tabobat, fizika, matematika va falsafada nazariy va amaliy yutuqlarga aynan mustafod aql bosqichida erishganini ko‘rsatadi. Aqlning yuksak darajasi – insonning yaratuvchiga intilishi va haqiqatni izlashidagi eng muhim quvvatdir. Ibn Sino ta’limotida aql:

- insonning bilish va axloqiy yetukligining markaziy o‘qi,
- sezgilarni tartibga soluvchi va haqiqatga yetaklovchi quvvat,
- tajriba orqali rivojlanadigan va ilohiy haqiqatga olib boradigan yo‘lboshchi sifatida talqin etiladi.²

Aqlning to‘rt bosqichli nazariyasi Ibn Sinoni Sharq va G‘arb falsafasi tarixida alohida o‘rin egallashiga sabab bo‘lgan. Bu ta’limot bugungi kunda ham inson kamoloti, ta’lim-tarbiya va ilmiy ijod uchun dolzarbdir.

Ibn Sino o‘zining falsafiy va ilmiy qarashlarida insonning mavjudligi, ruhiy va jismoniy hayoti, uning komillikka intilishi masalalariga alohida e’tibor qaratadi. U nafaqat tibbiyot, balki falsafa, axloq va ruhshunoslik sohalarida ham yirik ilmiy meros qoldirgan. Uning nazariyalarida falokat (baxtsizlik, fojea, insonni sinovga soluvchi holat) tushunchasi insonning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Falokat masalasiga yondashishda Ibn Sino asosan Aristotel va Forobiy ta’limotlariga tayangan holda, uni o‘ziga xos tarzda sharhlagan³.

Ibn Sino uchun falokat – bu oddiygina tashqi voqea yoki baxtsizlik emas, balki insonning aqliy va ruhiy dunyosiga chuqur ta’sir qiluvchi ontologik va axloqiy hodisadir. Unga ko‘ra falokat – insonning tabiiy tartib va qonuniyatlarga zid ravishda harakat qilishi yoki ularga duch kelishi natijasida yuzaga keladi. Bu hodisa shaxsning aql bilan idrok qilishi va uni qanday qabul qilishi bilan bog‘liq. Shu bois falokat bir kishiga saboq va kamolot eshigi bo‘lsa, boshqaga iztirob va tushkunlik keltirishi mumkin.

Ibn Sino axloqiy falsafasida ruhiy komillikka eltuvchi vosita sifatida qaraladi. Ruhiy jihatdan inson falokatni boshdan kechirar ekan, sabr, iroda, tavakkul va qanoat kabi sifatlarni rivojlantiradi. Axloqiy jihatdan esa falokat insonning xatti-harakatlarini sinab, uning fazilatli yoki illatli ekanini namoyon qiladi.

Ibn Sino falokatni faqat zararli hodisa sifatida emas, balki insonni sinovdan o‘tkazuvchi va uni yuksaklikka eltuvchi axloqiy maktab sifatida ham ko‘radi.

Ibn Sino falsafasida saodat (baxt) va falokat (baxtsizlik) bir-biriga qarama-qarshi, ammo o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Saodat – aql va ruhning uyg‘unligi, haqiqatni anglash va axloqiy komillikka erishishdir. Falokat esa – bu uyg‘unlik buzilganda, inson shahvat, jaholat yoki nafsga berilganda yuzaga keladigan oqibatdir. Demak, falokatni yengib o‘tish orqali inson haqiqiy saodatga erishadi.

Ibn Sino falokatni ikki ko‘rinishda ko‘radi:

Shaxsiy falokat – bu kasallik, ma’naviy tushkunlik, nafs ustidan nazoratni yo‘qotish kabi individual sinovlardir.

² Street, T. (2008). Avicenna and the Aristotelian Legacy. Leiden.: Brill. – P. 90.

³ Corbin, H. (1993). History of Islamic Philosophy. London.: Kegan Paul. – P. 56.

Ijtimoiy falokat – urush, zulm, adolatsizlik, johillik natijasida yuzaga keladigan umumiy fojealar. Unga ko‘ra, bunday falokatlarining ildizi ham inson aqlining yetarlicha ishlatilmasligida va axloqiy zaiflikdadir.⁴

Ibn Sino ta’limotida falokat tushunchasi inson hayotidagi sinov sifatida, ruhiy va axloqiy komillikning zarur bosqichi sifatida, aqlni ishga solish va haqiqatni izlash imkoniyati sifatida talqin qilinadi.

Unga ko‘ra, falokatni boshdan kechirmagan inson komillikka erisha olmaydi, chunki inson faqat sinov va qiyinchilik orqali haqiqiy fazilatlarni anglaydi. Shunday qilib, Ibn Sino falokatni yomonlik emas, balki yaxshilikka eltuvchi vosita sifatida ko‘rsatadi.

Alloma fikricha, insoniyatning eng katta falokati – bu aqlning susayishi va nodonlikning kuchayishidir. Chunki bu illat jamiyatni adolatsizlik va axloqsizlik sari olib boradi. Falokatdan qutulish yo‘li esa ilm, aql va ruhiy poklik orqali amalga oshadi. Ibn Sino ta’limotida axloq – ruhiy quvvatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, nafsni tarbiya qilish, aqlni mukammallashtirish orqali insonni baxt-saodatga eltuvchi yo‘ldir. Insonning oliy fazilatlari: adolat, saxovat, donolik, sabr-toqatdir. Illatlari: g‘azab, nafs balosi, hasad, jaholatdir. Uningcha, axloqiy yetuklikka erishgan shaxs falokatlar oldida bardoshli bo‘ladi va jamiyatga foyda keltiradi. Shu sababli Ibn Sino falsafasida ruh, aql va falokat tushunchalari bir-birini to‘ldirib, axloqiy kamolot konsepsiyasini tashkil etadi.⁵

Bugungi davrda Ibn Sinoning axloqiy qarashlari inson ruhiy salomatligini asrash, aqlni rivojlantirish va falokatlarga qarshi kurashishda hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning ta’limoti psixologiyada – inson ruhiyatini tushunish, pedagogikada – yoshlarni aql va axloq bilan tarbiyalash, falsafada – ma’naviy kamolotni asoslash va sotsiologiyada – jamiyatdagi illat va falokatlarni tushuntirish uchun qo‘llaniladi.

Demak, Ibn Sino konsepsiyasi nafaqat tarixiy, balki bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Ibn Sino axloqiy-falsafiy qarashlarida ruh, aql va falokat tushunchalari inson hayoti va jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlari sifatida talqin etiladi. Ruh – insonning mohiyati, aql – uning yo‘lboshchisi, falokat esa noto‘g‘ri yo‘ldan borish oqibati sifatida ko‘rsatiladi. Allomaning ta’limotida inson kamoloti – ruhni poklash, aqlni rivojlantirish va falokatlardan saqlanish orqali amalga oshadi.

Sharq falsafiy tafakkuri tarixida Andalus mutafakkiri Ibn Tufaylning o‘rni alohida. Uning mashhur asari “Hayy ibn Yaqzon” nafaqat falsafiy roman, balki insonning bilish, ma’naviy kamolot va axloqiy rivojlanish jarayonlarini modellashtiruvchi noyob asardir. Bu asarda Ibn Tufayl insonning tabiat bilan uyg‘un holda, jamiyatdan chetda yashab ham aql va ruh orqali oliy haqiqatni anglash imkoniyatiga egaligini ko‘rsatadi.

Asarda asosiy qahramon – Hayy timsolida insonning tabiiy taraqqiyoti, axloqiy shakllanishi va aql orqali haqiqatga yetishi bosqichma-bosqich tasvirlangan. Shuning

⁴ Smith, M. . Al-Ghazali and Avicenna: The Problem of Knowledge and Soul. Cambridge.: Cambridge University Press, 2008. – P. 76.

⁵ Parry, K. Depictions of Philosophy in Islamic Thought. London.: Routledge, 2005. –P. 45.

uchun bu asar “Hayy modeli” deb talqin qilinadi va u falsafa, pedagogika hamda axloqiy nazariya uchun muhim manba hisoblanadi.

Ibn Tufayl axloqiy rivojlanishni uch asosiy bosqichda izohlaydi:

Tabiiy axloqiylik – odam o‘z tirikligi uchun zarur bo‘lgan amallarni (ovqatlanish, o‘zini himoya qilish, boshqalarga zarar yetkazmaslik) instinkt asosida bajaradi.

Aqliy axloqiylik – aql yordamida ezgulik va yomonlikni farqlash, adolat va rahmshafqat kabi tushunchalarni anglash. Ilohiy axloqiylik – inson ruhining poklanishi, Yaratuvchiga yaqinlashish, axloqiy fazilatlarini mukammal egallash bosqichi. Demak, Hayy modeli insonni oddiy biologik mavjudotdan ma’naviy yetuk shaxsga aylanishini falsafiy tarzda tushuntiradi.⁶

Ibn Tufayl insonni tabiatning bir bo‘lagi sifatida ko‘radi, lekin uni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan asosiy sifat – aqldir. Aql insonni sezgi va tajribadan o‘tib, mulohaza va tahlil orqali, mavjudotlarning sababiy aloqalarini anglash darajasiga olib chiqadi. Shunday qilib, aql tabiatni va insonning o‘zini idrok etish vositasiga aylanadi.

.Aql va tajriba orqali kamolot tushunchasi Ibn Tufayl fikricha, axloqiy rivojlanishning asosi – aqldir. Hayy tajribalar orqali tabiat sirlarini o‘rganadi va aqliy xulosalar chiqaradi. Bu jarayon Aristotel va Forobiylarning “aql taraqqiyoti nazariyasi”ni davom ettiradi.

Asarda shuningdek, aqlning chegarasi ham ko‘rsatiladi: inson aql orqali ko‘p narsani bilishi mumkin, ammo oxir-oqibat ruhiy-axloqiy poklanish orqali oliy haqiqatga erishadi.

Hayy orolda yolg‘iz yashasa-da, oxir-oqibat jamiyat bilan uchrashadi. U odamlarning turmushi, urf-odatlarini, diniy marosimlarini ko‘radi. Hayy ularni ilmiy va ruhiy haqiqatga yetaklamoqchi bo‘ladi, biroq odamlar uni tushunmaydi. Bu voqea orqali Ibn Tufayl shuni ko‘rsatadiki:

–Har bir inson o‘zicha haqiqatga yetishi mumkin, ammo jamiyat ommaviy tarzda bunga qodir emas.

–Axloqiy rivojlanishda tarbiya, din va urf-odatlarining muhim o‘rni bor.

–Mutafakkir elitistik qarash bildiradi: haqiqatni anglash – faqat ma’naviy yuksak shaxslar uchun ochiqdir.

Bugungi kunda “Hayy modeli” bir necha sohalarda qimmatli:

–Pedagogika: inson tarbiyasi tajriba, aql va mustaqil fikrlash orqali shakllanadi.

–Psixologiya: shaxs rivoji bosqichma-bosqich kechadi, axloqiy ong tajriba va refleksiya orqali boyiydi.

–Axloqshunoslik: jamiyatdagi ma’naviy yetuklik – individual ruhiy kamolot natijasi.

–Din falsafasi: inson Yaratuvchiga nafaqat vahiy, balki aql va tajriba orqali ham yaqinlashishi mumkin.

Quyida ikki alloma ijodidagi umumiy jihatlar va farqlar: axloqiy chegaralar, ijtimoiy va epistemologik nazariyalarning tahlil qilib chiqamiz.

⁶ Stanford Encyclopedia of Philosophy. (2024). Ibn Tufayl. Retrieved from <https://plato.stanford.edu/entries/ibn-tufayl>

Ibn Sino axloqni ruhiy komillik bilan chambarchas bog‘laydi. Uning nazarida insonning maqsadi – saodatga erishish, bu esa aql va nafsni uyg‘unlashtirish orqali ro‘yobga chiqadi. Falokatlar insonni sinovdan o‘tkazuvchi omil sifatida talqin qilinib, ular orqali sabr, qanoat va iroda kabi fazilatlar shakllanadi.

Ibn Tufayl esa “Hayy ibn Yaqzon” asarida axloqiy chegaralarni jamiyat emas, balki insonning ichki tajribasi va aqli orqali anglash mumkinligini ko‘rsatadi. Hayy orolda yolg‘iz ulg‘ayib, tashqi ta‘limsiz ham tabiatni kuzatish va aql bilan xulosa chiqarish orqali adolat, rahm-shafqat va o‘zini tiyish kabi axloqiy qadriyatlarni kashf etadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, umumiylik: har ikkisi uchun axloqiylik insonning komillikka erishishidagi asosiy mezondir. Farq esa Ibn Sino axloqiy chegaralarni jamiyat va ruhiy sinovlar bilan bog‘lasa, Ibn Tufayl ularni tabiat va individual tajribadan chiqarib oladi.

Ibn Sino insonni ijtimoiy mavjudot sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, jamiyat – tabiiy ehtiyoj mahsuli, davlat va siyosat esa adolatni qaror toptirishda zarur vositalardir. Shaxsiy fazilatlar ijtimoiy barqarorlik va umumiy saodatning kafolatidir.⁷

Ibn Tufayl esa o‘z asarida insonning jamiyatdan tashqarida ham haqiqatga erisha olishini ko‘rsatadi. Biroq Hayy jamiyat bilan to‘qnash kelganda, odamlarning intellektual imkoniyatlari cheklanganini angelaydi. Shu sababli ommaga diniy ramzlar va shariat orqali haqiqatni yetkazish zarurligini ta‘kidlaydi.

Umumiylik: Ikkalasi ham jamiyatni axloqiy va intellektual rivojlanish uchun muhim deb biladi.

Farq: Ibn Sino jamiyatni inson hayoti uchun zaruriy shart sifatida ko‘rsa, Ibn Tufayl yakka shaxsning jamiyatdan tashqarida ham komillikka erishishini nazariy model sifatida ilgari suradi.

Ibn Tufayl esa epistemologik jarayonni tajriba va intuitiv idrok asosida tasvirlaydi: sezgi → kuzatuv → tajriba → aqliy tahlil → metafizik anglash. Hayy ibn Yaqzon inson aqli va tajribasi orqali Allohning mavjudligini bilishga erishadi.

Umumiylik: har ikkisi ham bilimni bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida talqin qiladi. Farq esa Ibn Sino intellekt nazariyasini mantiqiy qat‘iy tizim sifatida ishlab chiqsa, Ibn Tufayl tajribaviy va intuitiv yo‘lni asosiy vosita deb biladi.

Ibn Sino insonning axloqiy rivojlanishini ruh va aqlning uyg‘unligiga bog‘laydi. Unga ko‘ra, inson ruhiy kamolotga faqat aql orqali yetishi mumkin. Axloqiy me‘yorlar shaxsiy nafsoniyatni yengish va oliy qadriyatlarga bo‘ysunish orqali yuzaga chiqadi:

Ibn Sino nazarida, axloqiy chegaralar inson tabiatidagi instinktlar va aqlning nazorati o‘rtasidagi muvozanatdir.

Ibn Tufayl esa axloqiy rivojlanishni tabiat va tajriba orqali tushuntiradi. Uning “Hayy ibn Yaqzon” asaridagi bosh qahramon chekka orolda tarbiya va jamiyatdan yiroq holda ulg‘ayib, tajriba va fikrlash orqali axloqiy me‘yorlarni shakllantiradi. Bu yondashuv axloqiy chegaralarning insonning ichki sezgilari va tabiat bilan uyg‘unligi asosida shakllanishini ko‘rsatadi.

⁷ Xudoyberdiyeva, M. Ibn Sino falsafasida aql va ruh muammosi. Samarqand.: SamDU nashriyoti, 2012. – B. 55.

“Hayy o‘zining qilmishlari natijasini kuzatib, foyda va zarar o‘rtasidagi tafovutni idrok etdi. Bu esa uni yovuzlikdan tiyilib, yaxshilik sari intilishiga olib bordi”.⁸

Umumiylik: Ikkisi ham axloqiy chegaralarni insonning ichki ruhiy dunyosiga bog‘laydi.

Farq: Ibn Sino aqlni asosiy mezon deb bilsa, Ibn Tufayl tajriba va sezgini ham muhim manba sifatida ko‘radi.

Ibn Sino jamiyatni inson tabiati uchun zaruriy deb biladi. Unga ko‘ra, inson yolg‘iz yashashga qodir emas, chunki uning ehtiyojlari turlicha. Shuning uchun jamiyat adolatli qonunlar, axloqiy qoidalar va ilmiy bilimlar asosida boshqarilishi zarur.

“Inson tabiatidan jamiyatga muhtoj. Chunki hech kim barcha ehtiyojlarini yolg‘iz qondira olmaydi”.⁹

Ibn Tufaylning “Hayy ibn Yaqzon”idagi tajriba esa boshqa xulosaga olib keladi. Unga ko‘ra, inson jamiyatdan ajralgan holda ham o‘z kamolotiga erisha oladi. Biroq Hayy keyinchalik boshqa odamlar bilan muloqot qilganda, bilim va tajribaning hammaning darajasiga mos kelmasligini anglaydi. Bu esa ijtimoiy tabaqalanish va insonlarning bilim olish imkoniyatidagi farqlarni ko‘rsatadi.

Hayy boshqa insonlar bilan uchrashganda: “Ular haqiqatni anglashga qodir emasligini bilib, o‘zini ularga moslashtirdi”.¹⁰

Umumiylik: Har ikkisi insonni jamiyat bilan bog‘laydi.

Farq: Ibn Sino jamiyatni zarur shart deb bilsa, Ibn Tufayl tajribada jamiyatdan tashqarida ham kamolot mumkinligini ta’kidlaydi.

3. Epistemologik nazariyalar

Ibn Sino bilimni uch manbaga ajratadi:

–Hissiy idrok – tashqi olamni sezgilar orqali bilish.

–Aqliy idrok – hissiy bilimlarni umumlashtirish va tushunchalar hosil qilish.

–Ilhom (vahiy) – yuqori darajadagi bilim manbai.

Unga ko‘ra, aql insonni empirik bilishdan metafizik bilishga olib boradi.

“Bilish avval hissiy idrokdan boshlanadi, so‘ng aqliy umumlashtirishga o‘tadi, oxirida esa ilohiy ilhom orqali mukammal haqiqatga erishiladi”.¹¹

Ibn Tufayl epistemologik jarayonni badiiy-falsafiy modelda ko‘rsatadi. Hayy dastlab hissiy tajribalar orqali narsalarni biladi, keyin aqliy xulosalarga o‘tadi va oxirida ilohiy haqiqatga yetadi. U bu jarayonni shunday ifodalaydi.

“Hayy tabiatni kuzatish orqali uning yaratuvchisini tanidi va oxir-oqibat barcha mavjudotning yagona manbai borligini anglab yetdi”.¹²

Umumiylik: Ikkisi ham bilishni sezgi → aql → ilohiy haqiqat bosqichida tushuntiradi.

⁸Ibn Tufayl. Hayy ibn Yaqzon (arab tilidan tarjima). – Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995. II bob. – B. 55.

⁹ Ibn Sino.. Najot kitobi [Kitob an-Najot]. Toshkent.: Fan nashriyoti, 2013. – B. 215.

¹⁰ Ibn Tufayl. Hayy ibn Yaqzon (arab tilidan tarjima). – Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995. V bob. – B. 97.

¹¹ Ibn Sino. Shifo kitobi [Kitob ash-Shifo], Mantiq qismi. Toshkent.: Fan nashriyoti, 2016. – B. 70.

¹² Ibn Tufayl. Hayy ibn Yaqzon (arab tilidan tarjima). — Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995. – B. 60.

Farq: Ibn Sino mantiqiy-falsafiy usulda izoh bersa, Ibn Tufayl buni tajriba va allegorik hikoya orqali ko‘rsatadi.

Ibn Sino va Ibn Tufayl qarashlari o‘zaro uyg‘unlik va tafovutlarga ega. Axloqiy chegaralarda ikkalasi ham ichki dunyoni asosiy manba deb biladi, biroq Ibn Sino aqlni, Ibn Tufayl esa tajriba va sezgini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Ijtimoiy nazariyalarda Ibn Sino jamiyatni zaruriy, Ibn Tufayl esa individual kamolotni ham mumkin deb hisoblaydi. Epistemologiyada ikkalasi ham bilishni sezgi, aql va ilohiy haqiqat bosqichida tushuntiradi, farqi – izoh uslubidadir.

Bu taqqoslashlardan ko‘rinadiki, har ikki mutafakkir Sharq falsafiy tafakkurida insonning ma‘naviy va intellektual kamolotini asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Ibn Sinoning mantiqiy-falsafiy tahlillari va Ibn Tufaylning tajriba asosidagi hikoyaviy modeli bugungi zamon falsafiy va pedagogik muhokamalarda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ibn Sino va Ibn Tufayl qarashlari Sharq falsafasining , axloq va jamiyatga oid yuksak tafakkurini aks ettiradi. Ularni birlashtirgan jihat – inson aqli va axloqiy fazilatlari orqali saodatga erishishi haqidagi g‘oyadir. Ammo ularni farqlovchi jihatlar ham muhim: Ibn Sino falsafasi ko‘proq nazariy-mantiqiy, ijtimoiylikka asoslangan va davlat hamda jamiyatning ahamiyatini ta‘kidlovchi bo‘lsa, Ibn Tufayl falsafasi tajriba, ichki intuitsiya va individual ruhiy rivojlanishga urg‘u beradi.

Shunday qilib, ikki mutafakkir qarashlarini qiyoslash nafaqat Sharq falsafiy merosini anglashga, balki zamonaviy axloqiy, ijtimoiy va epistemologik masalalarni chuqurroq tushunishga ham xizmat qiladi.